ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KADRLARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV METODLARI

Jumayeva Malika Alisher qizi
Toshkent shahridagi Puchon universiteti 1-kurs magistranti.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24472033

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tashkilotlarida pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va innovatsion metodik imkoniyatlari tadqiq etilgan.*

Pedagogik ijodiy salohiyatning motivatsion, kognitiv, ijodiy faoliyatli, refleksiv va kommunikativ komponentlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida asoslangani o’rganildi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, Design Thinking, Action Research, Lesson Study, mentorlik va refleksiv portfolio metodlarining imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik kadrlar, ijodiy salohiyat, pedagogik kreativlik, kasbiy rivojlanish, innovatsion faoliyat, refleksiv kompetensiya, integrativ metodika, loyiha metodi, pedagogik hamkorlik.*

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations, organizational and pedagogical conditions, and innovative methodological opportunities for developing the creative potential of teaching staff in modern educational organizations. The motivational, cognitive, operational-activity, reflective, and communicative components of teachers' creative potential are conceptualized as an interconnected system.*

The potential of problem-based learning, project-based learning, Design Thinking, Action Research, Lesson Study, mentoring, and reflective portfolios in teachers' professional development is analyzed.

Keywords: *teaching staff, creative potential, pedagogical creativity, professional development, innovative activity, reflective competence, integrative methodology, project-based learning, pedagogical collaboration.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы, организационно-педагогические условия и инновационные методические возможности развития творческого потенциала педагогических кадров в современных образовательных организациях.*

Мотивационный, когнитивный, операционно-деятельностный, рефлексивный и коммуникативный компоненты творческого потенциала педагога обосновываются как взаимосвязанная система. Анализируются возможности проблемного обучения, проектного метода, Design Thinking, Action Research, Lesson Study, наставничества и рефлексивного портфолио в профессиональном развитии педагогов.

Ключевые слова: *педагогические кадры, творческий потенциал, педагогическое творчество, профессиональное развитие, инновационная деятельность, рефлексивная компетентность, интегративная методика, проектный метод, педагогическое сотрудничество.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi global ta’lim makonida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar pedagogik faoliyatning mazmuni, shakllari va metodlariga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim tashkilotlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari pedagoglardan faqat mavjud bilim va metodik tavsiyalarni o‘zlashtirishni emas, balki mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish, yangi ta’limiy g‘oyalar yaratish, innovatsion texnologiyalarni tanlash va ularni amaliy faoliyatga moslashtirishni ham talab etmoqda.

Mazkur sharoitda pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyati ta’lim sifatini takomillashtirish, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonining o‘zgaruvchan talablariga moslashishning muhim omiliga aylanib kelmoqda. Ijodiy salohiyat tushunchasi pedagogning mavjud bilimlari, kasbiy tajribasi, individual qobiliyatlari, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarining yangi pedagogik g‘oyalar yaratish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yaxlit majmuasini ifodalaydi. Shu bois pedagogik ijodkorlikni faqat noodatiy mashg‘ulot tashkil etish yoki yangi metoddan foydalanish bilan chegaralash to‘g‘ri emas. U pedagogning muammolarni aniqlashi, ularni tahlil qilishi, muqobil yechimlar ishlab chiqishi, natijalarni baholashi va o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirishini ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida pedagoglarning kasbiy faoliyatida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish, ijodiy faollik ko‘rsatish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish va innovatsiyalarni joriy etish huquqlari belgilangan. Mazkur huquqiy asos pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning milliy tashkiliy-huquqiy zaminini mustahkamlaydi.

Muammoning ilmiy o‘rganilganlik darajasiga e’tibor qaratilganda, ijodkorlik va kasbiy rivojlanish masalalari turli nazariy yo‘nalishlarda tadqiq etilganini ko‘rish mumkin. T. Amabile ijodkorlikning shakllanishida ichki motivatsiya, sohaga oid bilim va ijodiy fikrlash jarayonlarining o‘zaro ta’sirini asoslaydi. D. Schon esa mutaxassisning kasbiy faoliyat davomida o‘z harakatlarini tahlil qilishi va refleksiv yondashuvning ahamiyatini yoritadi.

D. Davies va hammualliflarning 2014-yilda chop etilgan tizimli sharhida pedagoglarning ijodkorlikni rivojlantirishdagi roli hamda ularni qo‘llab-quvvatlash ehtiyojlari tahlil qilingan.

Mualliflar pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda refleksiya, hamkasblar bilan muloqot va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining ahamiyatini ko‘rsatadilar. Shunga qaramay, pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini turli ta’lim tashkilotlari sharoitida rivojlantirish, uning tarkibiy komponentlarini yagona tizimga birlashtirish, metodik mexanizmlarini aniqlashtirish va natijalarini diagnostika qilish masalalari yanada tizimli tadqiqotni talab etadi. Pedagoglarni pedagogik ijodiy salohiyatning mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni tizimlashtirish, innovatsion va refleksiv metodlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini tahlil qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv pedagogik ijodiy salohiyatni o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan yaxlit tuzilma sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ijodiy salohiyatning kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishini, faoliyatli yondashuv esa pedagogning amaliy ijodiy tajribasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Refleksiv yondashuv pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanish asosida tashkil etildi:

Ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish.

Pedagogik va psixologik konsepsiyalarni qiyosiy o‘rganish.

Ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va umumlashtirish.

Pedagogik metodlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini tahlil qilish.

Ijodiy salohiyatni rivojlantirish modelini modellashtirish.

Tadqiqot doirasida pedagogik ijodiy salohiyat beshta tarkibiy komponent asosida tavsiflandi.

Motivatsion komponent. Pedagogning yangilik yaratishga intilishi, kasbiy rivojlanishga ehtiyoji, mustaqil tashabbus ko‘rsatishi va ijodiy faoliyatga ijobiy munosabatini qamrab oladi.

Kognitiv komponent. Pedagogning nazariy bilimlari, kreativ fikrlash qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Operatsion-faoliyatli komponent. Ijodiy g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsion metodlarni tanlash, yangi metodik ishlanmalar yaratish va pedagogik vaziyatlarga moslashtirish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Refleksiv komponent. Pedagogning o‘z faoliyatini baholashi, natijalarni tahlil qilishi, kamchiliklarni aniqlashi va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash qobiliyatini anglatadi.

Kommunikativ komponent. Hamkasblar bilan kasbiy hamkorlik, tajriba almashish, jamoaviy ijodiy faoliyat va yangi g‘oyalarni asoslab taqdim etish qobiliyatlarini ifodalaydi.

Mazkur komponentlar maqolada ishlab chiqilgan mualliflik tahliliy konstruksiyasi hisoblanadi. Ularning diagnostik jihatdan o‘lchanishi alohida empirik tekshiruvni talab etadi.

TADQIQOT NATIJALARI (RESULTS)

Nazariy tahlil natijasida pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda alohida metodlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni yagona metodik tizim asosida integratsiyalash zarurligi aniqlandi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish pedagogning individual xususiyatlari va kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda amaliy faoliyat, mustaqil izlanish va refleksiv tahlil bir-birini to‘ldirishi lozim. Ta’lim tashkilotidagi ijodiy muhit, rahbarning qo‘llab-quvvatlashi, hamkasblar bilan hamkorlik va metodik resurslardan foydalanish imkoniyati rivojlanish jarayonining muhim shartlari hisoblanadi.

Tadqiqotda pedagogik ijodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirildi.

Muammoli ta’lim va kreativ fikrlash metodlari.

Muammoli ta’lim pedagoglarni tayyor bilimlarni takrorlashdan ko‘ra, muayyan pedagogik vaziyatni tahlil qilish va mustaqil yechim ishlab chiqishga yo‘naltiradi.

Masalan, ta’lim tashkilotida pedagogik mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammoli vaziyat taqdim etiladi. Pedagoglar muammoning sabablarini aniqlaydi, muqobil yechimlarni taklif etadi va ularning afzalliklarini asoslaydi. Aqliy hujum, muammoli savollar, pedagogik vaziyatlar tahlili va kreativ fikrlash topshiriqlari ushbu yo‘nalishning samarali vositalari sifatida qaraladi.

Loyiha asosida kasbiy rivojlanish.

Loyiha metodi pedagoglarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

Pedagoglar individual yoki kichik guruhlarda muayyan ta’limiy muammoni tanlaydi, uni tahlil qiladi, loyihaviy yechim ishlab chiqadi va natijani amaliyotda sinaydi.

Loyihalar quyidagi mahsulotlarni yaratishga yo‘naltirilishi mumkin:

-yangi metodik ishlanma;

-innovatsion mashg‘ulot loyihasi;

-pedagogik texnologiya modeli;

-raqamli ta’lim resursi;

-ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiya.

Mazkur metod ijodiy fikrlash bilan bir qatorda rejalashtirish, hamkorlik va amaliy natijaga yo‘naltirilgan faoliyatni ham rivojlantiradi.

Design Thinking metodidan foydalanish.

Design Thinking pedagogik muammolarni ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda hal etishga yo‘naltirilgan yondashuvdir.

U quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Empatiya – ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini anglash.

Muammoni aniqlash – mavjud vaziyatni tahlil qilish.

G‘oyalar ishlab chiqish – muqobil yechimlarni taklif etish.

Prototiplash – tanlangan yechimning dastlabki namunasini yaratish.

Sinovdan o‘tkazish – yechimni amaliyotda tekshirish va takomillashtirish.

Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatni faqat tayyor metodlarni qo‘llash bilan cheklamasdan, yangi metodik yechimlarni yaratishga yo‘naltiradi.

Action Research – pedagogik amaliyotga yo‘naltirilgan tadqiqot.

Action Research pedagogning o‘z faoliyatidagi muammolarni aniqlashi, ularni tadqiq qilishi, amaliy o‘zgarishlarni amalga oshirishi va natijalarni tahlil qilishi asosida tashkil etiladi.

Mazkur metod pedagogning tadqiqotchilik pozitsiyasini rivojlantiradi. U o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish va samarali yechimlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Lesson Study va hamkorlikda kasbiy o‘rganish.

Lesson Study pedagoglarning jamoaviy hamkorlikda mashg‘ulotni rejalashtirishi, kuzatishi, natijalarni muhokama qilishi va keyingi faoliyatni takomillashtirishiga asoslanadi.

Uning muhim xususiyati individual pedagogik tajribani jamoaviy kasbiy bilimga aylantirish imkoniyatidir.

Bunda pedagoglar:

-umumiy muammoni aniqlaydi;
-mashg‘ulotni hamkorlikda loyihalashtiradi;
-amaliyotni kuzatadi;
-dalillar asosida tahlil qiladi;
-metodik yechimlarni takomillashtiradi.

Refleksiv portfolio va mentorlik.

Refleksiv portfolio pedagogning ijodiy ishlanmalari, metodik izlanishlari, o‘z faoliyatiga bergan baholari va erishgan natijalarini jamlashga xizmat qiladi.

Mentorlik esa tajribali va kam tajribali pedagoglar o‘rtasidagi kasbiy hamkorlikni tashkil etish orqali bilim va tajriba almashinuvini kuchaytiradi.

Bu metodlar pedagogning o‘z kasbiy rivojlanishiga mas’uliyat bilan yondashishi va mustaqil ta’lim olish ehtiyojini shakllantirishga yordam beradi.

Integrativ metodik model.

Tahlil natijalariga asoslanib, pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning besh bosqichli integrativ metodik modeli taklif etish mumkin:

Diagnostik. Pedagogning ijodiy salohiyatini, kasbiy ehtiyojlarini va mavjud qiyinchiliklarini aniqlash.

Motivatsion. Ijodiy faoliyatga ichki ehtiyoj, mustaqil izlanish va yangilikka ochiqlikni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi. Kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy-ijodiy. Pedagogik loyihalar, metodik ishlanmalar va yangi ta’limiy yechimlarni yaratish hamda sinab ko‘rish.

Refleksiv-baholash. Erishilgan natijalarni tahlil qilish, o‘zgarishlarni baholash va keyingi rivojlanish vazifalarini belgilash.

Modelning yakuniy natijasi esa, pedagogning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbus ko‘rsatishi, innovatsion faoliyat olib borishi va o‘z kasbiy amaliyotini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda individual, tashkiliy va metodik omillarning o‘zaro ta’sirini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. T. Amabile tomonidan ilgari surilgan ijodkorlik komponentlari yondashuvi ijodiy faoliyatda sohaga oid bilim, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari va motivatsiyaning ahamiyatini asoslaydi. Ushbu nazariy qarash maqolada taklif etilgan motivatsion va kognitiv komponentlarni izohlashga xizmat qiladi.

D. Schonning refleksiv amaliyot konsepsiyasi esa pedagogning kasbiy faoliyat davomida o’z qarorlari va harakatlarini tahlil qilishini muhim rivojlanish mexanizmi sifatida ko’rsatadi. Bu yondashuv refleksiv portfolio va Action Research metodlarining nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Davies va hammualliflarning tizimli sharhida pedagoglarning ijodkorlikni rivojlantirish faoliyatida kasbiy muloqot, refleksiya va qo’llab-quvvatlovchi sharoitlarning ahamiyati ko’rsatilgan.

Ushbu natijalar pedagogik hamkorlik va Lesson Study metodlarini integrativ tizimga kiritish zaruratini izohlaydi. Shu bilan birga, turli ta'lim tashkilotlarida pedagogik ijodkorlikning namoyon bo'lish shakllari bir xil emas. Maktabgacha ta'limda o'yinli va rivojlantiruvchi muhitni loyihalash, umumiy o'rta ta'limda fanlararo integratsiya va muammoli o'qitish, professional ta'limda amaliy loyihalar, oliy ta'limda esa ilmiy-tadqiqot va innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutishi mumkin. Shuning uchun taklif etilgan metodik modelning umumiy komponentlari saqlangan holda, uning amaliy mazmuni ta'lim bosqichining xususiyatlariga moslashtirilishi lozim. Tadqiqotning nazariy natijalari asosida metodik model taklif etilgan bo'lsada, uning samaradorligi hozircha empirik jihatdan tasdiqlangan deb hisoblanmaydi. Kelgusida tajriba va nazorat guruhlarida boshlang'ich hamda yakuniy diagnostika o'tkazish, olingan ma'lumotlarni statistik tahlil qilish orqali modelning amaliy samaradorligini aniqlash zarur.

XULOSA (CONCLUSION)

O'tkazilgan nazariy-metodologik tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyati kasbiy bilim, kreativ fikrlash, innovatsion faoliyat, refleksiv qobiliyat va kommunikativ kompetensiyalarning o'zaro bog'liq majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish faqat individual qobiliyatlarni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Bunda ta'lim tashkilotining tashkiliy muhiti, rahbarlik yondashuvi, kasbiy hamkorlik va mustaqil izlanish imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, Design Thinking, Action Research, Lesson Study, mentorlik va refleksiv portfolio pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning o'zaro to'ldiruvchi metodik vositalari sifatida qaralishi mumkin. Pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda diagnostik, motivatsion, rivojlantiruvchi, amaliy-ijodiy va refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat integrativ metodik modelni qo'llash taklif etildi. Ijodiy salohiyatni baholashda motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli, refleksiv va kommunikativ mezonlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan metodik modelni turli ta'lim tashkilotlarida qo'llashda uning umumiy tuzilmasini saqlagan holda, amaliy metodlar va topshiriqlarni tegishli ta'lim bosqichining xususiyatlariga moslashtirish zarur.

Shunday qilib, pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ta'lim tashkilotlarining innovatsion rivojlanishi, pedagoglarning kasbiy mustaqilligi va ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. – Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Lex.uz.
3. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.
4. Schon D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
5. Davies D., Jindal-Snape D., Digby R., Howe A., Collier C., Hay P. The roles and development needs of teachers to promote creativity: A systematic review of literature //

Teaching and Teacher Education. – 2014. – Vol. 41. – P. 34–41. – DOI: 10.1016/j.tate.2014.03.003.

6. Sawyer R. K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
7. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2012.
8. Stenhouse L. An Introduction to Curriculum Research and Development. – London: Heinemann, 1975.